



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalariga jalb qilingan xorijiy mutaxassislar uchun o‘quv seminarini tashkil etish to‘g‘risida

2023-2024-o‘quv yili oldidan umumiy o‘rta ta’lim muassasalariga jalb qilingan xorijiy mutaxassislarni ta’lim tizimi bilan tanishtirish, ular bilan tizimda faoliyat yuritayotgan mahalliy pedagog xodimlarning hamkorligini yo‘lga qo‘yish va hamkorlikning aniq yo‘nalishlarini belgilab olish maqsadida **buyuraman**:

1. Joriy yilning 28-29-avgust kunlari Toshkent shahridagi Maktabgacha ta’lim tashkilotlari rahbar va mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutida umumiy o‘rta ta’lim tizimiga ishga jalb qilingan xorijiy mutaxassislar uchun o‘quv seminari tashkil etilsin.

2. Pedagog kadrlar salohiyatini oshirish va ularni tayyorlaydigan muassasalar faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi (N.Kuchkarova) **uch kun muddatda** o‘quv seminar dasturini tayyorlasin hamda malakali trenerlarni jalb etish choralarini ko‘rsin.

3. Xalqaro aloqalar va investitsiyalarni jalb qilish bo‘limi (S.Tursunov), Xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish boshqarmasi (Sh.Temirova) **uch kun muddatda** umumiy o‘rta ta’lim muassasalariga jalb qilingan xorijiy mutaxassislar ro‘yxatini shakllantirsin hamda ularni o‘quv seminarida ishtirokini ta’minlasin.

4. Umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi (E.Murodov), Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi (N.Xusanbayeva) **uch kun muddatda** umumiy o‘rta ta’lim muassasalaridan xorijiy mutaxassislarga biriktirilgan pedagoglar ro‘yxatini shakllantirsin hamda ularni o‘quv seminarida ishtirokini ta’minlasin.

5. O‘quv seminariga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish bilan bog‘liq sarf-xarajatlar smetasi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6. Mazkur buyruqning ilovasiga muvofiq tasdiqlangan sarf-xarajatlar vazirlikning 2023-yil uchun markazlashgan tadbirlarning xarajatlar smetasi mablag‘lari doirasida amalga oshirilsin.

7. Davlat xaridlarini tashkil etish bo‘limi (J.Mannonov) mazkur buyruqning ilovasi bilan tasdiqlangan sarf-xarajatlar smetasiga asosan davlat xaridlarini belgilangan tartibda amalga oshirsin.

8. Buxgalteriya hisobi va hisoboti bo‘limi (F.Jamuratova) tuzilgan shartnomalarga muvofiq o‘rnatilgan tartibda to‘lovlar amalga oshirilishini ta’minlasin.

9. Maktabgacha ta'lim tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish bo'limi (F.Keldibekov) Maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbar va mutaxassislarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti bilan birgalikda o'quv seminarini o'tkazish bilan bog'liq tashkiliy choralarni ko'rsin.

10. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish bo'limi (R.Musurmonov) o'quv seminarida xorijiy davlatlardan mutaxassislarning onlayn ishtirok etishlariga imkoniyat yaratish uchun ZOOM platformasi orqali bog'lanishlari bilan bog'liq texnik ishlarni amalga oshirsin.

11. Axborot xizmati (D.Sobirova) o'quv seminarini o'tkazilish jarayonlarini ommaviy axborot vositalari, vazirlikning ijtimoiy tarmoqlaridagi sahifalari orqali keng jamoatchilikka yetkazsin.

12. Devonxona (D.Isxakova) ushbu buyruqni bir kun muddatda departament, boshqarma va bo'limlar, hududiy boshqarmalar hamda vazirlik tasarrufidagi muassasalarga yetkazilishini ta'minlasin.

13. Ushbu buyruqning ijrosini nazorat qilish vazirning birinchi o'rinbosari U.Sharifxodjayev zimmasiga yuklatilsin.

Vazir



X.Umarova

Toshkent sh.,
2023-yil 18-iyul,
210-son

O'zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab
ta'limi vazirining
2023-yil 18-iyuldagi
210-son buyrug'iga
ILOVA

**Umumiy o'rta ta'lim muassasalariga jalb qilingan xorijiy mutaxassislar
uchun o'quv seminarini tashkil etish bilan bog'liq
XARAJATLAR SMETASI**

T/r	Tadbir xarajatlari	O'lchov birligi	Soni	Summasi	Jami
	Jami:				52 580 000
1	Ishtirokchilarni ovqatlantirish harajatlari				33 000 000
<i>1.1.</i>	<i>Nonushta (2 kun 150 nafar)</i>	<i>nafar</i>	<i>300</i>	<i>30 000</i>	<i>9 000 000</i>
<i>1.2.</i>	<i>Tushlik (2 kun 150 nafar)</i>	<i>nafar</i>	<i>300</i>	<i>40 000</i>	<i>12 000 000</i>
<i>1.3.</i>	<i>Kechki ovqat (2 kun 150 nafar)</i>	<i>nafar</i>	<i>300</i>	<i>40 000</i>	<i>12 000 000</i>
2	Qurultoy ishtirokchilari uchun kofe-breyk	nafar	200	95 000	19 000 000
3	Oq qog'oz A4	pachka	10	58 000	580 000

Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari
faoliyatini muvofiqlashtirish
boshqarmasi boshlig'i

E.Murodov

Davlat xaridlarini tashkil etish
bo'limi

J.Mannonov